

SALOHIYNING SO‘Z VA TIL ODOBI HAQIDAGI QARASHLARI

Surayyo Shodiyeva Salohiddin qizi

*Qashqadaryo viloyati Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Salohiddin Salohiyning so‘z, til odobi, muloqot haqidagi ma’rifiy-tarbiyaviy, vazifaviy hamda diniy qarashlari birlamchi manbalar, “Gul va Bulbul” hamda “Yusuf va Zulayxo” asarlari orqali talqin etib berilgan. Bu orqali so‘z, muloqot madaniyati har bir shaxsning komil inson bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *Salohiy, “Gul va Bulbul”, “Yusuf va Zulayxo” til, so‘z, nutq, ruh, olamning yaratilish asosi, nasr, nazm, odamning sharafi.*

Annotation. *This paper examines Salohiddin Salohiy’s educational, ethical, functional, and religious perspectives on the use of language, speech etiquette, and communication culture, as reflected in his works “Gul va Bulbul” and “Yusuf va Zulaykho”. Through the analysis of these primary sources, the study demonstrates that the culture of speech and communication plays a vital role in an individual’s moral and spiritual perfection, contributing significantly to the development of a complete and mature personality.*

Keywords: *Salohiy, “Gul va Bulbul”, “Yusuf va Zulaykho”, language, speech, rhetoric, spirit, foundation of creation, prose, poetry, human dignity.*

Buxoro adabiy muhitining tipik bir vakili hisoblangan Salohiddin Salohiy ijodi o‘zbek adabiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega. Shoir yaratgan g‘oyaviy jihatdan yetuk, o‘z ichida chuqur ma’nolarni va hayotiy tajribalarni aks ettirgan badiiy asarlar sharq mumtoz adabiyotining manbalarini yana-da boyitishga xizmat qiladi. Salohiddin Salohiy “Gul va Bulbul” hamda “Yusuf va Zulayxo” asarlarida azaliy va abadiy mavzu hisoblangan so‘z haqida fikr yuritib, unda o‘z qarashlarini ilgari surgan. Bu jihatdan uning qaysi tomonlariga e’tibor bergani, nimalarni qoralab, qanday xislatlarni ulug‘lagani e’tiborga loyiqdir. Salohiyning til, so‘z haqida bayon etgan fikrlari bugunga qadar sharq adabiyoti an’analari kontekstida talqin etilmagan.

Shuning uchun biz Salohiyning mazkur masalaga oid mulohazalari aks ettirilgan baytlarni tahlil qilib, alohida o‘rganib chiqishni lozim topdik. Shoirning hijriy – 1153, milodiy yilda esa 1740-yilda yozilgan “Gul va Bulbul” dostonida muomala madaniyatiga oid yaxshi suhbat va yomon suhbatlar haqida fikr yuritilgan:

Yamonlar suhbatida bo‘lma hargiz,
Alarni suhbatidur fitnaangiz.
Eshit, nojins birla qilma suhbat,
Yetar andin senga ko‘p ranj-u mehnat [6: 20].

Shoir “qazonga yaqin yursang qarosi yuqar” maqoliga ishora qilib, yomon insonlar bilan hamdam bo‘lmaslikni, ularning o‘zi ham so‘zi ham barcha uchun ziyon-zahmat keltirishini uqturadi. Hech vaqt bunday insonlar suhbatida bo‘lmaslikni, aks holda ularning suhbat va amali ta’sir qilib, insonni yomon yo‘lga boshlashi quyidagi satrlarda ifodalangan:

Yamonlar suhbatida turma, qochg‘il,
Alarni suhbatidur zahri qotil.
Ayo Bulbul, bo‘lur suhbat muassir,
Yamondin xo‘y olur bu nafsi kofir.
Borib bo‘l yaxshilarni suhbatida,
Toparsan fayz alarni suhbatida [6: 21].

Mumtoz adabiyotda ham yomonlarning suhbatida bo‘lmaslikni bir qancha shoirlarimiz o‘z asarlarida turli o‘xshatishlar, simvollar asosida ifodalab o‘tishgan. Jumladan, Pahlavon Mahmudning quyidagi fikrlari e’tiborliki, unda nodonning suhbatidan ko‘ra uch yuz Ko‘hi Qof (katta tog‘)ni ezish, yurakning qonidan butun yer-yuzini bo‘yash yoki zindonda yotish ming marta afzalligini ta’kidlab o‘tadi:

Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq.

Salohiyning ma’naviy ustoz – Navoiy ham so‘z haqidagi boblarda shu fikrlar ma’nisi ifodalangan: So‘zni faqat yaxshilikka, yaxshi ishlarga sarflash zarur, so‘z yovuz niyatda ishlatilsa, falokat keltiradi va bunday odam musulmon emas. Fitna, tuhmat, ig‘vo, yolg‘on – bu nuqsonlarning bari so‘z orqali sodir bo‘ladi. Odamlar so‘zdan foydalanib, yuz xil nayrangni ishlatadilar: So‘z kishini o‘ldiradi va tiriltiradi, so‘z mulkni obod etadi va vayron qiladi, so‘z ulug‘ ishlarni bunyod etadi va xunuk voqealarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Navoiy buning qator misollarini chog‘ishtirib bergan, chunonchi:

Fitna qilib vada-yu payg‘om ila,
Aqlni mast aylasa dashnom ila.
Ko‘rguzubon loba malohat uza,
Lobasi tuz sepsa jarohat uza.
Kim ekin ul shulag‘a yoqilg‘uchi,
Yo bu jarohatga davo qilg‘uchi. [4; 33-34]

Qadimiy manbalarimizdan biri hisoblangan “Avesto” kitobida ham yomonlik va nodonlik qoralanib, yaxshilik va ezgulik ta’kidlanadi. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” bosh g‘oya sifatida ilgari suriladi. Ushbu g‘oya barcha didakdik asarlarda insonlarga namuna sifatida keltiriladiki, bu orqali insonning ma’naviyati mukammal bo‘lishiga erishilgan.

Salohiy 1753-yil “Yusuf va Zulayxo” nomli doston yozib yusufrnomanavislik an’anasini davom ettirgan shoirlardan biridir. Unda asosiy voqealar boshlanmasidan oldin an’anaviy kirish qismi: hamd, na’t, munojot, me’roj vasfi, to‘rt xalifa bayonidan tashqari Buxoro ta’rifi, Muhammad Rahimxonga bag‘ishlangan bob, foniy dunyo ta’rifi, ishq, husn, so‘z tavsifi va

asarning yozilish sababi kabi boblar hamda har bir bobdan soʻng “Munojot ba dargohi qoziyul-hojot” fasli keltirilgan. Salohiy ushbu boblar orasida Alloh tomonidan tuhfa etilgan soʻzga ham alohida bob ajratgani ahamiyatlidir. Ushbu bob: “Anosir (unsurlar, barcha yaratqilarga) va takrim (karam qilish) iftixoriga sabab boʻlgan soʻz vasfining bayonidadir” deb nomlangan: “Dar bayoni vasfi suxanki, sababi iftixori anosir va takrim ast” [3: 26].

Hazrat Navoiy taʼbiri bilan aytganda: “Soʻz – birinchi qudrat turtkisi, olamning yaratilishiga nido – asos boʻlgan” yoki “toʻrt sadaf gavharning durji” – yaʼni toʻrt unsur (suv, havo, olov, tuproq)dan hosil boʻlgan inson zotining bosh xususiyatini belgilaydi”. Goʻyo Mutlaq iloh moddiy olamni yaratish maqsadida “kun”, “fakona” — “yaral”, “boʻl”, deb xitob etgan va dunyo yaralgan ekan. Yaʼni, soʻz — birlamchi (azaldan), amal ikkilamchi degan tushuncha ham shundan kelib chiqqan. Mutlaq iloh olamni yaratgandan keyin soʻzni insonga bagʻishladi.

Alisher Navoiyning fikricha: “Soʻz gavharining sharafi” balandligiga sabab uning butun olam qudrati tarafidan tuhfa etilganidir. U “toʻrt sadaf gavharning durji” — yaʼni toʻrt unsur (suv, havo, oʻt, tuproq)dan hosil boʻlgan inson zotining bosh xususiyatini belgilaydi, inson nutqi bilan inson, nutq uni barchadan afzal etadi. Soʻz, nutq — ruh, qolip ichidagi jon, hayot, harakat demak, til faqat aloqa quroli, insonni mumtoz etgan neʼmatgina emas, balki inson uchun azob-iztiroblar keltiradigan narsa ham, zero, til — kishi boshiga koʻp falokatlar keltiradi. Soʻz masʼuliyati qanchalik baland ekanini, odamlar taqdiri, kishilarning hayoti bir soʻz bilan hal etilishi – yo baxtga muyassar, yo abadul-abad badbaxt boʻlishini, soʻz odamlarini jonfidolikka, ulugʻ maqsadlar sari kurashga safarbar etishini qayd etgan Navoiy ayni vaqtda soʻzning estetik taʼsir kuchini koʻrsatishni unutmagan.

Ushbu maʼnilar Salohiy ijodida oʻzgacha yoʻsinda ifodalangan. Shoirning soʻz taʼrifiga bagʻishlangan bobida, asosan, soʻzning falsafiy-ijtimoiy mohiyati, vazifalari hamda soʻz sanʼatining buyuk taʼsiri, tarbiyaviy, maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyati koʻrsatilgan:

Suxan ganji ravoni kibryoist,
Suxan miftohi qufli oshnoist.
Suxan nurest az fayzi ilohi,
Girifta nurash az mah to ba mohi.
Suxan durdonayi ganji bayon ast,
Kalidi oʻ ba dasti nuktadon ast.
Suxan oynayi asrori gʻayb ast,
Libosi zebbaxshi nuqsi ayb ast [3: 26].

Mazmuni:

Soʻz buyuklikning abadiy xazinasidir (Kibriyo olamining ruhi),
Soʻz doʻstlar koʻngil qulfining kalitidir.
Soʻz Alloh fayzidan taralgan nurdur,
Bu nur yerdan koʻkkacha taralgandir.
Soʻz bayon durdonasining xazinasidir,
U suxandon qoʻlidagi kalitdir.
Soʻz gʻayb (nihon) sirining oynasidir,

Ayb va nuqsonga zeb beruvchi libosdir.

Shoir fikricha: Soʻz insonning bosh xususiyatini belgilaydi, odam nutqi bilan inson, nutq uni barchadan afzal etadi. Soʻz, nutq — ruh, qolip ichidagi jon, hayot, harakat demak. Til faqat aloqa quroli, insonni mumtoz etgan neʼmatgina emas, balki inson uchun azob-iztiroblar keltiradigan narsa ham, zero, til — kishi boshiga koʻp falokatlar keltiradi. Shoirning masalaga qanchalik chuqur qaraganini his etish qiyin emas. Soʻz masʼuliyati qanchalik baland ekanini, odamlar taqdiri, kishilarning hayoti bir soʻz bilan hal etilishi – yo baxtga muyassar, yo abadulabad badbaxt boʻlishini, soʻz odamlarini jonfidolikka, ulugʻ maqsadlar sari kurashga safarbar etishini qayd etgan Salohiy ayni vaqtda soʻzning estetik taʼsir kuchini koʻrsatishni unutmagan.

Yuqoridagi sheʼrning 2-baytidagi ifoda xuddiki hazrat Navoiyning quyidagi bayt mazmuniga oʻxshash, yaʼni soʻzning ilohiy maʼno-mazmuni ifodalangan:

Dahr muqayyad bila ozodasi,

Barcha erur “kof” ila “nun” zodasi [4:38].

Soʻz — birinchi qudrat turtkisi, olamning yaratilishiga nido — asos boʻlgan, degan falsafiy tushunchaga eʼtiqod qilgan. Yaʼni soʻz — birlamchi (azaldan), amal ikkilamchi degan tushuncha ham shundan kelib chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, soʻz Allohning qudrati bilan yaralgan va shu orqali butun yer-u zamin barpo boʻlgan. Soʻz, nutq suxandon qoʻlidagi kalit, insonga zeb beruvchi libos ekan soʻzni qadrlash, tilga eʼtibor berish lozimligini uqtirish sharqning koʻp shoirlarida bor. Koʻrinadiki, har bir adib bunda anʼanaviy xulosalarni yangi ifoda-ibora bilan takrorlash barobarida oʻzi hayotda koʻrgan, kuzatgan voqea-hodisalardan chiqargan xulosalarni ham singdirgan. Zero, nasihat, foydali gap aytish, odamiylik xislatlarini targʻib qilish ham shoirning burchi hisoblangan. Ayniqsa, Salohiy kabi mutafakkir shoirda bu intilish aniq sezilib turadi. Umuman olganda, soʻz — odamning sharafi, soʻz — fazilat, soʻz — axloqiy kamolot vositasi. Soʻzning qudrati va imkoniyatidan ana shu yoʻlda foydalanish lozim. Buyuk shoirning xulosasi – ana shu.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salohiy. Gul va Bulbul. OʻzRFA SHI Asosiy fond, toshbosma inv.577.
2. Salohiy. Gul va Bulbul. OʻzRFA SHI Asosiy fond, qoʻlyozma inv.3402.
3. Salohiy. Yusuf va Zulayxo. OʻzRFA SHI Asosiy fond, qoʻlyozma inv.9691.
4. Алишер Навоий. Ҳайрату-л-аброр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1989.
5. Жумаева Д. “Юсуф ва Зулайхо” туркумидаги дostonларнинг қиёсий-матний тадқиқи. Филол.фан.номз.дисс. – Т.: 2020. – 159 б.
6. Салоҳиддин С. Гул ва Булбул (Достон. Нашрга тайёрловчи, изоҳлар ва луғат муаллифи Сурайё Шодиева). – Тошкент: Фирдавс-Шох, 2023. – 88 б.
7. Салоҳий Дилором. Мутафаккир ва мумтоз шеърят. II-китоб. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. – 212 б.